

**LOGISTIKA FAOLIYATIDA OMBORXONA XIZMATINI
RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI****Boymatov O‘tkirbek Tilovmurod o‘g‘li***Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar**universiteti Transport muhandisligi**va logistika kafedrası assistenti**utkirbekboymatov92@gmail.com**ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-4849-2382>**Yormamatov To‘lqin Choriqul o‘g‘li**Email. tolqinyormamatov@gmail.com*

Annotasiya: Ushbu maqolada logistika tizimida omborlarning ahamiyati bayon etilgan. Mamlakatimizda xizmat ko‘rsatish sohasini shuningdek, logistika va yuk tashuvlari, omborxonalar logistikasini rivojlantirish va sifatini yaxshilash kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonidagi ahamiyatiga ko‘ra va xizmat ko‘rsatish sohasiga qarab omborlarning turlari bayon etilgan. Omborxonalar faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish uchun takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. ombor xizmati, omborga joylashtirish, logistika, omborxonalar logistikasi.

Abstract: This article describes the importance of warehouses in the logistics system. In our country, the development and improvement of the service sector, as well as logistics and freight transportation, warehouse logistics are urgent issues of the day. Types of warehouses are described according to their importance in the production process and the service sector. Suggestions are made for the further development and improvement of warehouse activities.

Keywords. warehouse service, warehousing, logistics, warehouse logistics.

Аннотация: В этой статье описывается важность складов в моей логистической системе. Развитие и повышение качества сферы услуг, а также логистики и грузоперевозок, складской логистики является актуальной проблемой в нашей стране. Типы складов описаны в соответствии с их значением в производственном процессе и сфере услуг. Даны предложения по дальнейшему развитию и совершенствованию складской деятельности.

Ключевые слова. складские услуги, складирование, логистика, складская логистика.

Kirish. Ombor yoki omborlar majmui xizmat ko‘rsatish infrastrukturasi bilan birgalikda ombor xo‘jaligini tashkil etadi. Sanoat korxonasida ombor xo‘jaligining asosiy vazifasi sanoatning tegishli moddiy resurslar bilan to‘g‘ri oziqlanishini, ularning

saqlanishini tashkil etish va omborxonalar amaliyotlarini amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarni imkon boricha qisqarishdir. Logistika tizimida omborlarning ahamiyati va o'rni juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Omborlar logistika tizimining asosiy qismlaridan birini tashkil etadi. Logistik tizim omborlarga bo'lgan tashkiliy va texnik-iqtisodiy talablarni shakllantiradi, omborlar tizimining maqsadini va eng maqbul ishlash mezonini belgilaydi, yuklarni qayta ishlash shartlarini aniqlaydi. O'z navbatida, materiallarni omborga joylashtirishni tashkil etib (omborni joylashtirishga joy tashlash, maxsulotlarni saqlash usullari va boshqalar) zaxiraning logistika tizimining turli xil ishlarida aylanishi bilan bog'liq xarajatlariga, miqdoriga va harakatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Ombor xizmati - logistikasining o'rganish obyekti tovar moddiy qiymatliklarini omborga joylashtirish, yukni qayta ishlash va o'rash jarayonidir.

Omborga joylashtirish - logistik kanal ishtirokchilari tomonidan zaxiralarni saqlash, ularning butligini ta'minlash, ularni maqsadga muvofiq (ratsional) joylashtirish, hisobga olish, doimo yangilab turish va xizmatlarning xavfsiz usullaridan iboratdir.

Adabiyotlar tahlili. Xalqaro innovatsion logistika, omborxonalar xo'jaligini boshqarish, omborxonalar logistikasi, innovatsion logistika shuningdek, xalqaro omborxonalar logistika huquqi va xalqaro transport tashuvlarida omborxonalar logistika xizmatini samarali tashkil etish bo'yicha ko'plab xorijlik va mamlakatimiz olimlari ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Bunda chet el olimlaridan Till Becker, Oliver Jeken, Julia Boppert va boshqalarning bir qator asarlari ushbu sohadagi tadqiqotlarga bag'ishlangan. MDH mamlakatlari iqtisodchilari asarlarida ham logistikada innovatsion texnologiyalarni qo'llash muammolari o'z aksini topgan bo'lib, ulardan G.Xamdamova O.Astanakulov A.П.Панкрухин, E.A.Utkin, E.П.Голубков, G.L.Bagiyeu, Л.Т.Данченко, Г.Л.Гардарики va boshqalarni alohida ko'rsatish mumkin [1,2,3].

O'zbekistonlik logistik olimlar xususan Rashidov.K.K, Y.Karriyeva, A.Kucharov va boshqalar ham innovatsion logistika va omborxonalar logistika nazariyasi va amaliyotini rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar [6, 7, 8].

Lekin ular o'z asarlarida omborxonalar logistikasi sohasida innovatsiya binobarin, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar omborxonalar logistikasi tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanish zaruriyati ushbu magistrlik dissertasiyasining mavzusini, uning maqsad va vazifalarini belgilab berdi.

Metodologiya

Tadqiqotning uslubiy asosini transport xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish sohasidagi xorijiy va o'zbekistonlik olimlarning ilmiy ishlarida bayon etilgan fundamental tushuncha va qoidalar tashkil etadi [4,5]. Muallif, shuningdek, ilmiy jamoalarning transport xizmatlarini ko'rsatish tizimini

takomillashtirish, transportning barcha turlaridan cheklangan va cheksiz foydalanish sharoitida ulardan foydalanish samaradorligi muammolarini o‘rganish, shakllantirish, foydalanish sohasidagi tadqiqotlar natijalariga tayanadi [9].

Iqtisodiyotda tovarlarni tashish va iste‘mol qilishning yangi yo‘nalishlarini ishlab chiqish, davlat organlari hisobotlari va statistik ma‘lumotlar, qonunchilik va me‘yoriyhuquqiy hujjatlar, O‘zbekiston kompaniyalarining uzoq muddatli rivojlanish dasturlari va hisobotlari shular jumlasidandir. Tadqiqot jarayonida funksional yo‘naltirilgan qidiruv, iqtisodiy va statistik tahlil, prognozlash va modellashtirishning turli usullari va vositalaridan foydalanildi.


Tahlil va natijalar.

Mahsulotlarni omborda saqlashning salbiy tomoni shundaki, zaxiralarni omborda saqlash bilan bog‘liq xarajatlar hisobiga tovar narxi oshadi. Bu omborga joylashtirish amaliyotlariga sarflanadigan xarajatlar, omborxonani ijaraga olish, omborlarni tartibda saqlash bilan bog‘liq xarajatlar. Bundan tashqari omborxonada zaxirasi tashkil etilishi natijasida boshqa maqsadlarda foydalanilishi mumkin bo‘lgan ko‘p miqdordagi moliyaviy resurslar ishga solinmay qoladi. Shu sababli mahsulotlarni omborxonaga joylashtirish xarajatlarni kamaytirishga yoki logistik servis sifatini oshirishga imkon bersagina o‘zini oqlaydi (talabga tez javob berishga yoki arzon narxlarda oldindan sotib olish hisobiga iqtisodga erishish). Omborga joylashtirishning ijobiy tomoni shundaki, ishlab chiqarish to‘g‘rilab olinadi, yuklarni butlashga, zaxiralarni to‘plashishga va taqsimlashga kerakli texnik va tashkiliy sharoitlar yaratiladi. Demak, ombor xizmati logistikasi - bu ombor xo‘jaligida oqimning qayta ishlash jarayonida amalga oshiriladigan o‘zaro bog‘liq operatsiyalar kompleksidir.

Ombor logistikasi va ishlab chiqarish logistikasi korxonaga ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirishda, resurslarni yetkazib berish, saqlash, boshqarish va ulardan foydalanish funktsiyalarini bajarishda to‘liq o‘zaro aloqani ta‘minlaydi. Bugungi kunda xizmat ko‘rsatish bo‘yicha 11 mingdan ortiq korxonalar, jumladan, logistik xizmat ko‘rsatish firmalari, omborxonalar xizmat ko‘rsatish korxonalar, savdo-maishiy komplekslar, minibanklar va sug‘urta kompaniyalari filiallari va boshqa korxonalar tashkil etildi.

Mahsulot iste‘molchilari omborlari texnologik jarayon uzluksiz o‘tishini ta‘minlashga mo‘ljallangan. Mazkur omborlarda tugatilmagan ishlab chiqarish zaxiralari, asboblari, ehtiyot qismlar va boshqalar saqlanadi. Ishlab chiqarish jarayonidagi ahamiyatiga qarab ishlab chiqarish tashkilotlarining omborlari quyidagi turlari 1-sxemada keltirilgan.

Ishlab chiqarish jarayonidagi ahamiyatiga qarab ishlab chiqarish tashkilotlarining ombor turlari




Mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasini shuningdek, logistika va yuk tashuvlari, omborxonalar logistikasini rivojlantirish va sifatini yaxshilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Omborlarning roli va o'rnini tahlil qilganda iyerarxiyaning turli bosqichlarida, ya'ni umumdavlat, regional, lokal va ishlab chiqarish bosqichlarida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Ombor xo'jaligini tashkil etishning eng sodda variantlaridan biri kengtarmoqli tuzilmadir. Bunday tuzilmada qaysidir bir to'plash punkti boshqa bir nechta punktlar uchun manba - ombor boladi. Bu tizimning keyingi bir bosqichi eshelonlashgan tuzilma bo'lib, u bir necha iyerarxiya boqichi - joylashtirish eshelonlaridan iborat bo'ladi. Bunday tizimda iste'molchilardan talablar eng quyi pog'onadagi punktga tushadi. Normal sharoitda tovarlar har bir pog'onadagi omborlar yaqin joylashgan yuqori pog'onadagi ombordan to'ldiriladi. Masalan, kirim omborlarining zaxiralari ulgurji regional omborlardan to'ldiriladi. Ba'zan tovar omborga to'g'ri yetkazib beruvchidan regional va kirim omborlarini cheklab o'tadi, yoki regional ombordan kirim omborlarini chetlab o'tadi. Mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar omborlari ishlab chiqarishga mo'ljallangan xomashyo, materiallar, butlovchi va boshqa mahsulotlarni saqlashga ixtisoslashtirilgan va bunday omborlar, birinchi navbatda, ishlab chiqaruvchi iste'molchilarni kerakli materiallar bilan ta'minlaydi.

Xizmat ko'rsatish sohasiga qarab korxonalar omborlari turlari 2-sxemada keltirilgan.


Xizmat ko'rsatish sohasiga qarab korxonalar omborlari turlari:



Sotuvchi tashkilotlar omborlari tovarlarning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga uzluksiz harakatini ta'minlashga xizmat qiladi. Ularning asosiy vazifalari — ishlab chiqarish mahsulotini iste'mol mahsulotiga aylantirish hamda turli iste'molchilar, shu jumladan, chakana savdo tarmoqlarining uzluksiz ta'minotini amalga oshirish. Vositachi tashkilotlar (eng avvalo, transport tashkilotlari).

— moddiy boyliklarni jo'natish bilan bog'liq omborga qo'shimcha joylashtirishga mo'ljallangan. Omborlarning bunday turlariga temir yo'l stansiyalari omborlari, avtotransport, daryo yoki dengiz portlarining yuk terminallari, havo transporti terminallari hisoblanadi. Bajarilayotgan yuklarni qayta ishlash amaliyotlarining turi bo'yicha bu omborlar transportdan tushirilib, boshqasiga ortish imkoniga kiradi.

1-rasm



Omborda materiallar zaxirasi harakatini hisobga olish maxsus kin loteka yordamida olib boriladi. Zaxiralar darajasini tartibga olish miqdorni yozib borish yoki

buyurtmalar davriyligi tizimi bo'yicha amalga oshiriladi. Omborxonada xodimlari shtati omborxonada amaliyotlari uchun talab qilinayotgan mehnatning ko'pligiga va qiyinchiliklariga, qo'llanilayotgan transport vositalariga va yukni tashish-tushirish hamda boshqa omborxonada amaliyotlarining va avtomatlashganlik darajasiga qarab belgilanadi. Omborga mahsulotlarni qabul qilish va joylashtirish. Omborga joylashtirish shaklining tanlanishi omborga egalik qilish masalasining hal bo'lishi bilan bog'liq. Ombor tanlashda ikkita yo'li bor: omborga egalik qilish, yoki umumiy omborlardan foydalanish.

Xulosa va takliflar.

Omborlar sonini aniqlash va omborlar tarmoqlarini innovatsion loyihalarning samaradorligi quyidagilarga bog'liq: innovatsion investitsiyalashtirish maqsadlarini nazariy jihatdan asoslanganligiga; innovatsion loyihani bajarish bilan bog'liq bo'lgan ilmiy-tadqiqot va loyiha hujjatlarini ta'minlashga; innovatsiya loyihasini texnikaviy va iqtisodiy jihatdan asoslanganligiga; innovatsiya loyihalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan investitsiya mablag'lariga; innovatsion loyihalar asosida ishlab chiqarish jarayonida yangi namunaviy mahsulot turlarini va umumiy yangi mahsulotni ishlab chiqarishni to'liq o'zlashtirishga innovatsion investitsiya samaradorligi ishlab chiqarish davrida olingan yalpi foydaning oshib borishida ifodalanadi. U ishlab chiqarish jarayonida yangilikni qo'llash asosida yaratilgan qo'shimcha mahsulot qiymatidan tashkil topishi kerak

Omborxonada faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish uchun quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- sotuvchilarga omborxonada xizmat ko'rsatish sifatini oshirish;
- omborxonada xizmat ko'rsatishlar turini ko'paytirish;
- aholi va korxonada tashkilotlarda omborxonada xizmatini ko'rsatishda informasion axborot texnologiyalardan keng va samarali foydalanish;
- maishiy va kompyuter texnikasi va ularning extiyot qismlarini saqlaydigan omborxonalarini kengaytirish, saqlash sharoitlarini yanada yaxshilash;
- aholi va korxonada va tashkilotlarga omborxonada xizmatini ko'rsatish xarajatlarini pasaytirish va sifatini oshirish;
- xizmat ko'rsatishda zamonaviy asbob-uskunalardan keng foydalanish va samarali foydalanish;
- ma'muriy xarajatlar ustidan doimiy nazorat qilish va ularni qisqartirish chora-tadbirlarini ko'rib chiqish;
- ilg'or texnologiyalardan samaral foydalani va uni iqtisod qilish yo'llarini aniqlashtirish;
- rivojlangan davlatlar tajribalaridan keng foydalanish va ularni mahalliy ichki bozorga tadbiq etish;

- xodimlar malakasini doimiy ravishda oshirib borish va ularni qayta tayyorlashda yosh malakali kadrlarni jalb etib yangi ish o‘rinlarini tashkil etish.

Adabiyotlar

1. A.A. Trifiljva, A.N. Voronkov. Marketigovaya logistika. Uchebnaya posobiya. Sankt-Piterburg. izd. “Soyuz” 2021 god.
2. Bauersoks Donald Dj., Kloss Deyvid Dj. Logistika: integrirrovannaya sep postavok / Per. s angl. M.: ZAO «Olimp — Biznes», 2011.-640 s.
3. Mirotin L.B., Tashbaev I.E. Logistika dlya predprinimatelya: osnovnye ponyatiya, polojeniya i protsedury: Uchebnoe posobie. M.: INFRA-M, 2021.
4. F.Xo‘jaev. “Logistika” darslik. Toshkent. Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi 2022 yil.
5. Karriyeva Ya.K.Globallashuv jarayonida xalqaro transport logistik tizimi faoliyatining samaradorligi. TDAU nashr tahririyati, T.: 2003 y.
6. F.Xo‘jaev, I.Muxtorova “Xalqaro logistika” o‘quv qo‘llanma Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi 2023 yil.
7. Kuziev, A., Muratov, A., Suyunov, O., Mardonov, S., & Samatova, B. (2025, February). Clark-Wright algorithm in routing small-batch cargo transportation. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 3268, No. 1). AIP Publishing.
8. Coals B. U. T. INTEGRATION OF LOGISTICS FUNCTIONAL AREAS AND THE PLACE OF WAREHOUSING IN THEM //International Journal Of Management And Economics Fundamental. – 2023. – T. 3. – №. 12. – C. 50-57.